

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

National and cultural features of brand names .....	589
<b>D.R.Ismoilova</b>	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Qotillik" mikromaydoni.....	596
<b>X.P.Shodmonov</b>	
Idiostil va stilistik konvergensiya munosabatining lingvopoetik tadqiqi.....	601
<b>X.Matnazarova</b>	
Diskurs tenorida adresant rollarning lingvistik tahlili .....	606
<b>J.Q.Ismonaliyev</b>	
Zamonaviy o'zbek tilshunosligida fe'l va zamonlarning o'rganilishi .....	609
<b>M.A.Abdulimova</b>	
Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi o'xshatishlarning mazmuniga ko'ra turlari .	612



UO‘K 81: 81‘06: 81‘1

**ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FE‘L VA ZAMONLARNING O‘RGANILISHI**  
**ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ И ВРЕМЕН В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ**  
**STUDY OF VERBS AND TENSES IN MODERN UZBEK LINGUISTICS**

**Ismonaliyev Jamoliddin Qo‘ldashaliyevich**   
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek tilshunosligida fe‘l va zamonlarning o‘rganilish ahamiyati, bu sohada qilingan ishlarning ko‘lami va hal etilishi kerak bo‘lgan muammolar haqida fikr yuritilgan. Xususan, XX asrning ikkinchi yarmida fe‘l so‘z turkumi yuzasidan keng ko‘lamli izlanishlar olib borgan tilshunolar A.G.G‘ulomov, A.Hojiyev, Sh.Shukurov, M.Sodiqovalarning qarashlari, ularning fe‘l haqidagi fikrlari va chop etilgan ilmiy ishlari bayon qilib berilgan. Bundan tashqari maqolada mustaqillik yillaridada Sh.Rahmatullayev, R.Rasulov kabi olimlarimizning fe‘l to‘g‘risida olib borgan ilmiy ishlari, ularda o‘rganilgan masalalar hamda bir qator nomzodlik dissertatsiyalari haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается значение изучения глаголов и времен в современном узбекском языкознании, объем работ, сделанных в этой области, и проблемы, требующие решения. В частности, представлены взгляды лингвистов А.Г. Гуломова, А.Ходжиева, Ш.Шукурова, М.Содиковой, проводивших обширные исследования глагольной группы слов во второй половине XX века, их мнения о глаголах и их публикации описаны в научных трудах. Кроме того, в годы независимости приведены научные труды наших ученых, таких как Ш.Рахматуллаев, Р.Расулов о глаголах, изучаемых в их научных трудах, а также ряд кандидатских диссертаций.

**Abstract**

This article discusses the importance of studying verbs and tenses in modern Uzbek linguistics, the scope of work done in this field, and the problems to be solved. In particular, the views of the linguists A.G.G‘ulomov, A.Hojiyev, Sh.Shukurov, M.Sodikova, who conducted extensive research on the verb word group in the second half of the 20th century, their opinions about verbs and their publications scientific works are described. In addition, there is information about the scientific works of our scientists such as Sh.Rahmatullayev, R.Rasulov, who worked in the field of verbs during the years of independence, as well as the issues studied by them in their books, and a number of PHD theses are considered.

**Kalit so‘zlar:** morfologiya, tilshunoslik tarixi, so‘z turkumi, fe‘l, zamon, nisbat, zamon kategoriyalari, fe‘l kategoriyalari, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, to‘liqsiz fe‘l, ko‘makchi fe‘l.

**Ключевые слова:** морфология, история языкознания, словарный запас, глагол, время, пропорция, временные категории, глагольные категории, причастие-инфинитив, несовершенный глагол, вспомогательный глагол.

**Key words:** morphology, history of linguistics, vocabulary, verb, tense, proportion, tense categories, verb categories, positive and negative, imperfect verb, auxiliary verb

**KIRISH**

So‘z turkumlari orasida tutgan o‘rniga ko‘ra, fe‘llar morfologiya sohasida katta ahamiyatga ega. Fe‘llar harakat ma‘nosini ifodalovchi hususiyatiga ko‘ra turkumlanadi. Fe‘llarning grammatik kategoriyalari orasida zamon kategoriyasi zamonaviy o‘zbek tilshunosligida katta e‘tibor qaratilgan bo‘limlardan biri hisoblanadi. Keng ko‘lamli izlanishlarga qaramasdan, sohada o‘z yechimini kutib turgan muammolar talaygina. Bu muammolarni izchillik bilan o‘rganish va ularni hal etish zamonaviy tilshunoslikning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Barcha olimlar fe‘l zamonlarini farqlashda harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalashiga ko‘ra uchta zamonga ajratishda yakdillar, ya‘ni nutq momentigacha bo‘lgan harakat-o‘tgan zamon, harakatning nutq momenti bilan bir paytga to‘g‘ri kelishi-hozirgi zamon va keyin kelishi esa-kelasi zamon. O‘zbek tilida fe‘l zamonlarini farqlashda zamon hosil qiluvchi formalarga

asoslaniladi. Muammo shundaki, bazi zamon formalari keng ma'noli bo'lib, ular bittadan ortiq zamonnii ifodalab kelishi ham mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O'zbek tilshunosligida fe'l so'z turkumi yuzasidan ko'p ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Fe'llarning barcha grammatik kategoriyalari va funksional formalari bo'yicha izlanishlar olib borilganligi, shuningdek, nomzodlik dissertatsiyalarining yoqlanganligi fe'l so'z turkumini keng o'rganilganligini ko'rsatadi.

Bir qator yetuk o'zbek tilshunoslari, jumladan A.G'.G'ulomov, A.Hojiyev, Sh.Shukurov, M.Sodiqova, Sh.Rahmatullayev, R.Rasulovlar fe'l turkumini o'rganishga salmoqli hissa qo'shdilar. Xususan, zamonaviy o'zbek tilshunosligida A.G'ulomov va A.Hojiyevlar fe'l turkumi va zamon kategoriyasini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratgan olimlardir.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirgi o'zbek tili fe'lning zamon formalariga juda boyligi bilan xarakterlanadi. Bu formalarning o'zaro umumiy bo'lgan tomonlari va har birining o'ziga xos xususiyatlarini belgilash ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega [1,128].

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida A.G'.G'ulomov fe'l so'z turkumiga oid izlanish olib borgan birinchi tilshunoslardan bo'lgan va o'zining "Fe'l" nomli ilmiy qo'llanmasida fe'lning barcha xususiyatlariga, uning ma'nosi hamda grammatik belgilariga to'xtalib o'tgan. Tilshunos fe'llarga harakat va holatni ifodalovchi so'z turkumi, deb ta'rif beradi va fe'llarni morfologiyada katta o'rin tutishiga urg'u beradi [2,3].

A.G'.G'ulomov o'zbek tilida zamonlarni uchta asosiy guruhga bo'lib, o'tgan, hozirgi va kelasi zamon, shu bilan birga ularning ichki bo'linishlariga e'tibor qaratadi:

I. O'tgan zamon: 1) o'tgan zamon aniqlik fe'li; 2) tarixiy o'tgan zamon fe'li; 3) uzoq o'tgan zamon fe'li; 4) o'tgan zamon hikoya fe'li; 5) o'tgan zamon eshitilganlik fe'li; 6) tugallanmagan o'tgan zamon fe'li.

II. Hozirgi zamon: 1) hozirgi-kelasi zamon fe'li; 2) konkret hozirgi zamon fe'li.

III. Kelasi zamon: 1) kelasi zamon davom fe'li; 2) kelasi zamon gumon fe'li.

Fe'l mavzusida o'rganilgan ishlar tahlil qilinganida, A.Hojiyevning izlanishlari e'tiborga molikdir. A.Hojiyev fe'llarga harakat ma'nosini bildiruvchi so'zlar, deb ta'rif beradi [1,4]. O'zining "Fe'l" nomli monografiyasida fe'llarning yasalishi, ulardagi grammatik kategoriyalar yoritilib, o'zbek tilidagi fe'lga doir munozarali masalalarning mohiyatini ochib berishga e'tibor qaratilgan, jumladan, zamon formalarini harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatish xususiyatiga ko'ra guruhlab o'rganish to'g'ri va maqsadga muvofiq bo'ladi, deb baxs yuritadi [2,131]. A. Hojiyev harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatish xususiyatiga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilidagi fe'llarning zamon formalarini uch asosiy guruhga bo'ladi: 1) o'tgan zamon formalari; 2) hozirgi zamon formalari; 3) hozirgi-kelasi zamon formalari. Shuningdek, tilshunosning 1966 yilda "O'zbek tilida ko'makchi fe'llar" nomli monografiyasi nashrdan chiqarildi. Ushbu monografiya o'zbek tilida ko'makchi fe'llarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda turli fe'l konstruksiyalarining xususiyatlari, ko'makchi fe'llarning ma'no va mohiyati, ularning qo'llanishi, ular ifodalovchi ma'nolarning kelib chiqishi, semantik klassifikatsiyasi va grammatik vid kategoriyasiga munosabati singari masalalar tahlil qilinadi. A.Hojiyevning "To'liqsiz fe'l" monografiyasida o'zbek tilshunosligida kam e'tibor qaratilgan masalalardan biri bo'lgan to'liqsiz fe'l formalari va ularning ma'nolari chuqur o'rganiladi. Ushbu ishda edi, ekan, emish kabi to'liqsiz fe'llarning xususiyatlari asosli faktlar yordamida ochib beriladi.

O'zbek tilshunosligida Sh.Shukurov ham fe'l so'z turkumi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, xususan "Fe'l tarixidan" nomli ilmiy ishida qadimgi turkiy yodgorliklar tilida uchraydigan mayl va zamon formalarining ma'nolari va ularning qo'llanilishidagi xususiyatlar ochib beriladi. Shuningdek, mayl va zamon formalarini yasovchi affikslarning fonetik ko'rinishlariga alohida e'tibor qaratadi [3,3]. Tilshunosning "O'zbek tilida fe'l zamonlari taraqqiyoti" asari o'zbek tilidagi fe'l zamonlarining tarixiy taraqqiyotini o'rganishga qaratilgan. Unda fe'l formalarining yuzaga kelishi, rivojlanib borishi va stabillashuvi, hamda tarixiy taraqqiyot jarayonida bu formalarning faollashuvi yoki susayishi kabi masalalar muxokama qilingan [4]. Sh.Shukurovning fe'l mavzusidagi izlanishlari uning "O'zbek tilida fe'l mayllari taraqqiyoti" nomli asarida ham o'z aksini topadi. Ushbu

## TILSHUNOSLIK

asarda o'zbek tilidagi fe'l mayllari va zamonlari taraqqiyoti tadqiq qilinadi. Buyruq-istak va shart mayllariga alohida e'tibor qaratiladi [5].

M.Sodiqova fe'l stilistikasi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan [6,3]. O'zining ilmiy qo'llanmasida tilshunos badiiy asarlarda qo'llangan fe'llar va fe'lli brikmalarni stilistik jihatdan tahlil qiladi. Bazi bir qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan, qoidalarga zid, xilof ravishda qo'llanadigan yoki stilistik bo'yoq berish, originallikka intilish uchun atayin shunday qo'llangan va shu kabi yozuvchi qalamiga xos til materiallari ikki bo'limga ajratilib, ilmiy stilistik jihatdan tahlil qilinadi.

Mustaqillik yillarida ham tilshunos olimlar tomonidan fe'l so'z turkumiga bag'ishlangan bir qator monografiyalar, ilmiy qo'llanmalar, ilmiy maqolalar chop etildi va nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi.

Sh.Rahmatullayev mustaqillikning ilk yillarida fe'l so'z turkumi yuzasidan izlanish olib borgan. U "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi" nomli ilmiy qo'llanmasida fe'l frazemalarining boshqa lug'aviy birliklar bilan bog'lashuv imkoniyatlariga ahamiyat qaratadi [7]. Frazemalar bog'lashuvsiz va bog'lashuvli kabi ikki guruhga ajratilib, bog'lashuvli frazemalarning o'zi ham bir, ikki, uch bog'lashuvli deb to'dalanadi va bog'lashuv imkoniyatlari batafsil bayon qilinadi.

R.Rasulov ham mustaqillik davrida fe'l so'z turkumini o'rganishga bag'ishlangan izlanishlar olib bordi. Xususan, "O'zbek tili fe'llarining ma'no tuzilishi" nomli monografiyasida o'zbek tilidagi holat fe'llarining ma'no tuzilishi va ma'no tarkibini chuqur taxlil qiladi. O'zbek tilidagi holat fe'llarining ma'nosini tarkibiy qismlarga ajratib, ularni bir nechta leksik-semantik guruxlarga ajratadi [8,7]. Guruxlarga ajratishda mushtarak va birlashtiruvchi semalarga asoslanadi.

Shuningdek, bir qator tilshunos olimlar tomonidan fe'l so'z turkumiga oid nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi. O'.Sharipovning "O'zbek tilida yumush fe'llarining ma'no valentliklari" mavzusidagi (1995), U.Feydaning "O'zbek va uyg'ur tillaridagi o'tgan zamon fe'llarining badiiy nutqda ishlatilishi" mavzusidagi (1998), Z.N.Hudaybergenovning "O'zbek va turk tillarida fe'lning o'tgan zamon shakllaridagi tizimi" mavzusidagi (1999), B.M.Bahriddinovaning "Fe'l lug'aviy shakllari tizimi. Tur kategoriyasi" mavzusidagi (2002), G.A.Narimovning "O'zbek tilida fe'llarning obyekt argumenti mavzusidagi (2005), F.O.Jumayevning "O'zbek tilidagi sintetik fe'l yasamalarining analitik fe'l yasamalari bilan sinonimik munosabati" mavzusidagi (2006), S.X.Muhamedovning "O'zbek tilida harakat fe'llarining semantik va valentlik xususiyatlari" mavzusidagi (2007), G.N.Isaqovning "O'zbek tilidagi qolmoq fe'lining leksik-semantik xususiyatlari" mavzusidagi (2008), Z.D.Mirzakarimovning "Fe'l boshqaruvidagi bilan ko'makchili birikmalar semantikasi" mavzusidagi (2008), G'.Q.Mirsanovning "Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aksional va aspektual xususiyatlari" mavzusidagi (2009), F.G.Sharipov "Fe'llarda harakat tarzining sintetik ifodalanishi" mavzusidagi (2009), D.G'aniyevaning "O'zbek tilidagi fe'lning funktsional shakllarida sinkretiklik va polifunktsionallik" mavzusidagi (2012) dissertatsiyalari fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi, ammo fe'l va fe'l zamonlarini o'rganishda o'z yechimini kutib turgan bir talay muammolar mavjud va bu sohada izlanishlar davom etadi.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, fe'l va zamonlar mavzusida shu paytga qadar talay ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, fe'llarni zamonlarga ajratishda nomutanosibliklar va o'z yechimini kutib turgan masalalar mavjud. O'zbek tilidagi zamon formalarining rang-barangligi va murakkabligi sohada hali ko'p izlanishlar olib borilishi zarurligini ko'rsatadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Хожиев А. (1973) Феъл. – Тошкент: Фан, 128 б.
2. Фуломов А.Ф. (1954) Феъл. – Тошкент: Ўзбекистон, 3 б.
3. Шукуров Ш. (1970) Феъл тарихидан. Қадимги туркий ёдгорликлар тилида майл ва замон формалари. - Тошкент: Фан, 3 б.
4. Шукуров Ш. (1976) Ўзбек тилида феъл замонлари тараққиёти. – Тошкент: Фан.
5. Шукуров Ш. (1980) Ўзбек тилида феъл майллари тараққиёти. – Тошкент: Фан.
6. Содіқова М. (1975) Феъл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 3 б.
7. Раҳматуллаев Ш. (1992) Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет.
8. Расулов Р. (2005) Ўзбек тили феълларининг маъно тuzилиши. – Тошкент. Ўзбекистон, 7 б.